



## **MAKTABGA TAYYORLOV GURUHI BOLALARINI IJTIMOYIY HAYOTGA TAYYORLASHDA SOG`LOM TURMUSH-TARZINI TASHKIL QILISH**

*Achilova Soxibaxon*

*Qo`qon davlat pedagogika instituti o`qituvchisi*

*Alijonova Durdon Jo`rabek qizi, Alijonova barnoxon Saidali qizi*

*Qo`qon DPI talabalari*

Maktabga tayyorlov guruhi bolalarini ijtimoiy hayotga tayyorlashda sog`lom turmush tarzining tarbiyaviy ahamiyati katta. Jumladan, sog`lom turmush tarzi xalq ijodkorligining tarkibiy qismi bo`lib, har bir xalqning o`ziga xos madaniyatini, urf-odatlarini ifoda etadi. Xalq pedagogikasi ajdodlar merosining asosan og`zaki tarzda bildirgan pand-nasihatlari, o`gitalari orqali yosh avlodni har tomonlama tarbiyalash vositasidir.

Maktabga tayyorlov guruhi bolalarida sog`lom turmush tarzi ko`nikmalarini tarbiyalashda olqishlardan foydalanish samarali natija beradi.

Olqish – xalqning asrlar mobaynida ezgulik, inson va uning baxt-saodati kuylanib kelingan barhayot qo`shig`i. «Olqish» turkiy tillarda - maqtash, sharaflash, yaxshi istaklar tilash» kabi ma`nolarni anglatib, bolalarning har bir xatti-harakatini, bajargan ishlarini sharaflash, ularni ko`klarga ko`tarish, maqtash uchun ishlatiladi. Olqish janri ezgulikka xizmat qilishi, yaxshilikka da`vatkorligi bilangina yashab keladi.

Erkalamalar insonning bolaga nisbatan beqiyos mehridan dalolatdir. Erkalamalar asosan kichik yoshdagi bolalarga nisbatan qo`llanilib, kattalar bilan bolalar o`rtasidagi iliq munosabatni shakllantiradi. Erkalamalar orqali bolalarda mehnatsevarlik tuyg`usi, ma`naviy-axloqiy fazilatlarini tarkib toptirish natijasida sog`lom turmush tarzi ko`nikmalari tarbiyalanadi.

Maktabga tayyorlov guruhi bolalarida sog`lom turmush tarzi ko`nikmalarini shakllantirishda maqollardan foydalanish samarali natija beradi.

Maqol – xalq orasida eng ko`p qo`llaniladigan xalq og`zaki ijodi janri. Maqollar ijtimoiy funksiyasiga ko`ra keng xalq ommasining dunyoqarashini ifodalaydi. Maqol tematik boy, obrazlar dunyosi rang-barangdir. Maqollarda asosan odamiylik va axloqiylik, ezgulik, insoniylik kabi ma`naviy qadriyatlar ulug`lanadi. Topishmoqlar juda katta ma`naviy tarbiya manbai hisoblanadi. Topishmoqlar bolalar xotirasini mustahkamlaydi, ularning fantaziyasini boyitadi, topqirlik va hozirjavoblikni tarbiyalaydi, fikrlash qobiliyatini o`stiradi. Shuningdek, topishmoqlar orqali bola tevarak-atrof, narsa va hodisalar, ularning o`ziga xos xususiyatlari haqida ma`lumotga ega bo`ladilar. Masalan, eng ko`p ishlatiladigan «Bir parcha patir, Olamga tatir» topishmog`ida to`lin oy bilan patir bir-biriga taqqoslanadi va o`xshashligi ko`rsatiladi. Xalq og`zaki ijodidagi eng boy va rang-barang, shuningdek, yoshlar sog`lom turmush madaniyatini shakllantirishga xizmat qiluvchi janrlardan biri ertakdir.

Ertaklar xalq hayoti, milliy ma`naviyati, urf-odatlarini, udumlari, orzu-umidlarini aks ettirib, insonlarga axloqiy va badiiy ozuqa beradi. «Ertaklar yaxshilikka yetaklar», - deb xalqimizda bejiz aytilmagan. Ertaklar har bir xalqqa xos va mos bo`lgan hikoyatlardir. Xalq ertaklari tarbiyaviy jarayonni yaxlitligicha tashkil etish, ya`ni axloqiy, ma`naviy, ekologik, estetik va aqliy rivojlanish chegaralarini kengaytirish imkonini beradi. O`zbek xalq og`zaki ijodida hayotiy-maishiy ertaklar alohida o`rin tutadi. Ular real hayotiy uydirmalar asosiga qurilgan bo`lib, bolalarning axloqiy tarbiyasida muhim rol o`ynaydi. Hayotiy - maishiy ertaklarda xalq hayotining barcha elementlari to`laligicha aks etadi. Yoshlarda sog`lom turmush madaniyatini shakllantirishda maishiy ertaklar o`rni va roli alohida



ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, xalq pedagogikasi yoshlar sog`lom turmush tarzini shakllantirishning dastlabki manbasi bo`lib, ularda sog`lom turmush tarzining quyidagi tarkibiy qirralari o`z ifodasini topgan:

- insoniyatning paydo bo`lishi bilan paydo bo`lgan sog`lom hayot, salomatlik, sog`lom turmush tarzi haqidagi qarashlar taraqqiyoti bosqichma-bosqich o`z ifodasini og`zaki va yozma ravishda avloddan avlodga jamiyatdan jamiyatga o`tib yoshlar tarbiyasiga ta`sir etib kelgan;
- halq pedagogikasi sog`lom turmush tarzi talablari, qoidalarining amaliyotdagi in`ikosi sifatida yashovchanlik, ta`sirchanlik, dolzarblik xarakteriga ega;
- xalq pedagogikasi manbalarida sog`lom hayot kechirish, chiniqish; jismoniy mehnat bilan shug`ullanish, to`rg`i ovqatlanish, so`z, ong, fikr salomatligi, shaxsiy salomatligi haqida qayg`urish, tabiatni avaylab-asrash va boshqalar o`z aksini topgan bo`lib, ular sog`lom turmush tarzi haqida ilmiy asosga ega g`oyalari rivoji poydevori hisoblanadi;
- xalq pedagogikasi orqali ifoda etilgan sog`lom turmush tarzi g`oyalari amaliyot – nazariya va amaliyot zanjiri asosida shakllanib borganligi, oila – shaxs – jamiyat tizimi vositasida yoshlar ongiga ta`sir etganligi bilan o`ziga xos xususiyatga egadir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Ilk qadam davlat o'quv dasturi(takomillashtirilgan ikkinchi nashr) Toshkent 2022
2. Bolalarni boshlang'ich ta'limga majburiy bir yillik tayyorlash tizimini yanada rivojlantirish chora tadbirlari tog'risida.O'zbekiston Respublilasi Vazirlar Mahkamasining Qarori 2020 yil,9-mart
3. Maktabhacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti 802-sonli Qaror
4. G. Nazirova, МАКТАБГАЧА КАТТА ЁШДАГИ БОЛАЛАРДА ХАЛҚ ОҒЗАКИ ИЖОДИ ВОСИТАСИДА МИЛЛИЙ ҒУРУП ҲИССИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ–ИЖТИМОЙ ПЕДАГОГИК ЗАРУРИЯТ СИФАТИДА - Science and innovation, 2022
5. N.G. Malikovna, MG Bakhodirovna, EDUCATION OF CHILDREN IN THE SPIRIT OF PATRIOTISM AND FRIENDSHIP OF PEOPLES IN THE FAMILY.-International Journal of Early Childhood Special ..., 2022
6. Anvarovna, Sultonova Nurxon. "O'QUVCHILARDA XULQ-ATVOR SIFATLARINI SHAKLLANTIRISHDA XALQ OG'ZAKI IJODI VOSITALARIDAN FOYDALANISH." *Role of Exact and Natural Sciences During the Renaissance III* (2023): 94-98.
7. N.A Sultonova, Ibragimova Sh, D. Xolqoziyeva // TECHNOLOGIES OF URBRINGING CHILDREN IN MODERN FAMILIES /2020/3 European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences – 2- 3 p 115-119
8. Sultonova Nurxon Anvarovna. Issues of Education during the Oriental Renaissance //INTERNATIONAL JOURNAL OF INCLUSIVE AND SUSTAINABLE EDUCATION. – 2022. – Т. 1. – №. 5. – S. 301-305.
9. Султонова Н. А. ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПОДГОТОВКИ ДЕТЕЙ В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ К СОЦИАЛЬНОЙ ЖИЗНИ В СЕМЬЕ// SCIENTIFIC PROGRESS 1 (6), 631-635
10. Султонова Н. А., Йўлдашев К., Ёшларни ахлокий тарбиялашда нафосат тарбиясининг айрим муаммолари// Modern Scientific Challenges and Trends 1 (3(14)), 101-106
11. [https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=Rh71JaMAAAAJ&citation\\_for\\_view=Rh71JaMAAAAJ:W7OEmFMy1H9C](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=Rh71JaMAAAAJ&citation_for_view=Rh71JaMAAAAJ:W7OEmFMy1H9C)



12. [https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=Rh71JaMAAAAJ&citation\\_for\\_view=Rh71JaMAAAAJ:Tyk-4Ss8FVUC](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=Rh71JaMAAAAJ&citation_for_view=Rh71JaMAAAAJ:Tyk-4Ss8FVUC)
13. [https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=Rh71JaMAAAAJ&citation\\_for\\_view=Rh71JaMAAAAJ:UeHWp8X0CEIC](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=Rh71JaMAAAAJ&citation_for_view=Rh71JaMAAAAJ:UeHWp8X0CEIC)